



TALABA-YOSHLAR MA'NAVİY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Baxodirova Madinaxon Ravshanjon qizi

Qo'qon Davlat Universiteti Magistratura bo'limi 70111101- (Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish) ma'naviyat asoslari mutaxassisligi 2-bosqich magistranti Telefon raqam: +998905090558 Email: baxodirovamadinaxon7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashtirish sharoitida talaba-yoshlarning ma'naviy olamini boyitish va ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda virtual borliq (VR), sun'iy intellekt va gamifikatsiya kabi vositalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashuvi milliy qadriyatlarni anglash darajasini oshirishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada raqamli muhitda ma'naviy tarbiya berishning metodologik asoslari va talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar yuzasidan amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

Tayanch so'zlar: *ma'naviy salohiyat, innovatsion texnologiyalar, talaba-yoshlar, raqamli ta'lim, virtual borliq, milliy o'zlik, mafkuraviy immunitet, gamifikatsiya.*

Abstract: *This article analyzes the role of modern innovative technologies in enriching the spiritual world of students and forming ideological immunity in the context of globalization. The study proves that the integration of tools such as virtual reality (VR), artificial intelligence, and gamification into the educational process increases the level of understanding of national values. Furthermore, the article provides methodological foundations for spiritual education in the digital environment and practical recommendations on innovative approaches that serve to enhance the intellectual potential of students.*

Keywords: *spiritual potential, innovative technologies, student youth, digital education, virtual reality, national identity, ideological immunity, gamification.*

Bugungi shiddatli globallashtirish va raqamlashtirish davrida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Talaba-yoshlarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalar shunchaki yordamchi vosita emas, balki ta'lim va tarbiyaning mazmunini boyituvchi strategik omildir. Zamonaviy pedagogikada bu jarayon axborotni shunchaki yetkazishdan emas, balki uni his qilish va tahlil qilish darajasiga ko'tarishdan iboratdir.

Ma'naviyat tushunchasi ko'pincha tarixiy meros va qadriyatlarga tayanadi. Innovatsion texnologiyalar bu tushunchalarni talabaga yaqinlashtiradi. Bugungi davrimiz texnologiyalar davri bo'lganligi uchun darslarda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalansak maqsadga muvoffiq bo'ladi. Bunda talabalar



auditoriyadan chiqmagan holda qadimiy Buxoro yoki Samarqandning tarixiy obidalariga virtual sayohat qilishlari mumkin. Bu "tarixni his qilish" effekti orqali milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Tarixiy shaxslar, jadid bobolarimizning gologrammalari orqali ularning hayoti va faoliyatini namoyish etish darsning ta'sirchanligini oshiradi. "Milliy qadriyatlarimiz" yoki "O'zbekiston tarixi" mavzularida Plickers, Kahoot yoki maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar orqali musobaqalar tashkil etish ma'naviyat va ma'rifatga oid mavzularni talabalar o'rtasida qiziqarli qilish uchun o'yin elementlaridan foydalanilganda yanada qiziqarli bo'ladi.

Ma'lumki, "Texnologiya" – yunoncha "tehne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at va "logos" – so'z, ta'limot, fan ma'nosini anglatadi. Bu atama dastlab ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda fanda 1870-yillardan e'tiboran ishlab chiqarish sohasida qo'llanila boshlagan bo'lib, unga materiallarga, yarim tayyor mahsulotlarga ishlov berish, ularning tarkibini, xususiyatlarini, ko'rinishini, tayyorlanishini, qo'llanish sohasini o'zgartirish yo'llari haqidagi fan sifatida qaralgan¹⁶.

"Pedagogik texnologiya" esa pedagogik nazariya va amaliyotda shaxsni shakllantiruvchi, uning sifatleri va xususiyatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanuvchi tarbiyaviy jarayon va o'rgatuvchi hamda didaktik texnologiyalarni amalga oshiruvchi ta'lim jarayoni hisoblanadi.

Oliy ta'limda innovatsiyalarning tatbiq etilishi ta'lim mazmunini shaxsga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi. Bu jarayonda texnologiya — vosita, ma'naviy barkamollik esa — asosiy maqsad bo'lib xizmat qiladi. Zero, faqat texnologik bilimga ega, ammo ma'naviy poydevori sust bo'lgan mutaxassis jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Shu bois, ta'lim sifatini oshirish strategiyasi axloqiy tarbiya va texnologik taraqqiyotning o'zaro uyg'unligiga tayanishi shart.

Milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun yangi tipdagi o'quv reja, o'quv dasturi va ta'lim standartlari yaratildi. Lekin ularni to'la amalga oshirish uchun ta'lim mazmuniga yangi pedagogik tajribalarni, texnologiyalarni olib kirish, ularni joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak. Binobarin hozirda ommaviy ravishda qo'llanib kelayotgan an'anaviy ta'lim berishning usullarining o'z yutuq va kamchiliklari mavjud. Qo'llanilayotgan ma'ruza, hikoya, suhbat va shunga o'xshash usullarda ko'pincha ofitser-o'qituvchi beradigan fikr kursantga bir yoqlama singdiriladi. Bunday holatda ofitser-o'qituvchi va kursant o'rtasidagi qayta aloqa ko'ngildagidek bo'lmaydi. Agar ofitser-o'qituvchi mahoratli va so'zlashuv madaniyatiga ega bo'lsa, fikrlarini aniq, sodda va tushunarli bayon etishga usta bo'lsa – bu usul bilan ham maqsadga erishish mumkin. Albatta bunday qobiliyatga barcha pedagoglar to'liq ega emaslar. Demak, muvaffaqiyatning asosiy garovi kursantlarning barchasini o'rgatish-o'rganish jarayoniga faol jalb etishdir¹⁷.

Ta'lim jarayonini, unga mukammallik, aniqlik, tartiblilik, yo'lga solinganlik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish

¹⁶ Azizxo'jaeva, N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b

¹⁷ Ishmuxamedov, R.J., Rayimov, Sh.K. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma: - T.: TOUQBYu, 2013. - 54 b



va optimallashtirish yo'llarini izlash pedagogika sohasida doimo olib borilgan. Yan Amos Komenskiy o'quv jarayonida "vaqt, predmetlar va usullar"ni shunday ustalik bilan taqsimlangan mashg'ulotni va uning ideal ko'rinishi (varianti)ni izlab topishga harakat qilgan. Shunda, Komenskiyning fikricha, "hamma narsa, to'g'ri vazminlikdagi toshlari bo'lgan soat kabi hamda bunday turdagi avtomatni qurish kabi yoqimli va quvonchli va oxir-oqibatda, bunchalik mohirlik bilan yaratilgan instrumentda erishish mumkin bo'lgan to'g'rilik bilan ilgariga qarab yuradi". Zamonaviy pedagogikada ham ta'limning shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ta'limga, ishlab chiqarish – texnologik jarayondagi kabi, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Innovatsiya-bu kelajak" degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovation g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovation rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'lga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davr hammaga ma'lum. Yangi fikr yangi g'oyalar innovatsiyaga tayangan davlat faoliyati davrning aktual talabidir¹⁸. Yoshlar "Start up" "Texnoways" singari yirik texnologik rivojlanish marafonlarida o'z iqtidor va imkoniyatlarini namoyon etyabdi. Grandlar g'olibiga aylanib ishlanmalarini foydali qurilmalariga aylantiryabdi. Ana shunday yigit-qizlarni qo'llab quvvatlash maqsadida innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida birinchilardan bo'lib "Yoshlar akademiyasi" tashkil etildi. Bugun yurtimiz aholisining 60 foizini tashkil etadigan yoshlar orasida iqtidorlilar ko'p. Ularni har tomonlama qo'llab- quvvatlash zamirida esa mustaqil o'z g'oyalari bilan yurtimiz va Jahon maydonida munosib o'rin egallay oladigan shaxslarni tarbiyalash yotadi. Zero ana shunday yoshlar Yangi O'zbekiston kelajagini bunyod etish yo'lida shahdam qadam tashlashni boshladi.

Bugungi kunimizda raqamli platformalar va multimedia resurslari orqali milliy o'zlikni anglash, jadidlar merosi yoki jahon falsafasini o'rganish jarayoni talaba uchun shunchaki matn emas, balki jonli jarayonga aylanmoqda. Zamonaviy keys-texnologiyalar va simulyatsion o'yinlar talabani ma'naviy-axloqiy tanlov oldida qoldiradi. Bu esa ularda hayotiy mas'uliyatni his qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda esa muayyan yondashuvlarni qo'llash, ya'ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat'iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Bunda tanqidiy va kreativ fikrlash, turli

¹⁸ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil Oliy Majlisga murojaatnomasi



vaziyatda o'z nuqtai nazarini bayon eta olish, ijodkorlik asosida quriladigan yangi amaliy jarayonlar nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar ma'naviy tarbiya jarayonini quruq ma'ruzalardan jonli muloqot va amaliy tajribaga aylantiradi. Bu talaba-yoshlarda nafaqat bilim, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan "Ma'naviy filtrlash" qobiliyatini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil Oliy Majlisga murojaatnomasi
2. Azizxo'jaeva, N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2003. - 174 b
3. Ishmuxamedov, R.J., Rayimov, Sh.K. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma: - T.: TOUQBYu, 2013. - 54 b